



FUNDAMENTALS OF CONTRACTUAL RESPONSIBILITY OF THE DOCTRINE OF CIVIL LAW CHARACTERISTICS OF THE CONTINENTAL LEGAL SYSTEM OF GERMANY AND FRANCE

Imomniyozov Doniyorbek Bakhtiyor ugli ¹

¹ Master of Business Law, Tashkent State Law University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4742175>

ARTICLE INFO

Received: 20th April 2021
Accepted: 25th April 2021
Online: 30th April 2021

KEY WORDS

contract, obligation, civil liability, guilt, damage, causal link, debtor, creditor, culpa in contrahendo doctrine

ABSTRACT

This article provides a comparative analysis of the grounds for civil liability for non-performance of contractual obligations. In particular, the article describes the violation of the contract, which is the basis for contractual liability of subjects of civil law relations in German and French law, the fault of the debtor, the damage to the creditor and the terms of the causal relationship between them.

GERMANIYA VA FRANSIYANING KONTINENTAL HUQUQ TIZIMIGA XOS BO‘LGAN FUQAROLIK-HUQUQIY DOKTRINASINING SHARTNOMAVIY JAVOBGARLIK ASOSLARI

Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o‘g‘li ¹

¹ Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi mutaxassisligi magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021
Ma‘qullandi: 25-aprel 2021
Chop etildi: 30-aprel 2021

KALIT SO‘ZLAR

shartnoma, majburiyat, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, ayb, zarar, sababiy bog‘lanish, qarzdor, kreditor, culpa in contrahendo doktorinasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asoslar qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, maqolada nemis va fransuz huquqida fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyektlarini shartnomaviy javobgarlikka tortish asoslari bo‘lgan shartnomaning buzilishi, qazrdorning aybi, kreditorga yetkazilgan zarar va ular o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish shartlari yoritilgan.

Kontinental Yevropa mamlakatlari huquqida fuqarolik-huquqiy javobgarlikni vujudga keltiruvchi an’anaviy asoslar sifatida shartnomaning buzilishi va shartnomani buzgan shaxsga nisbatan javobgarlik choralarini qo‘llash uchun shartlar majmuining (zararning mavjudligi, kontragentning aybi va

ular o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish) mavjud bo‘lishi e’tirof etiladi.

Mazkur maqola ish doirasida o‘rganilayotgan davlatlardan biri Germaniya fuqarolik qonunchiligi bo‘yicha darslik mualliflaridan biri shunday yozadi: “shaxsga nisbatan javobgarlik shaklida huquqiy



holatda bekor bo‘ladi (impossibilium nulla obligatio)” degan prinsip yotadi⁵. Nemis fuqarolik doktrinasida bunday “imkonsizlik”ning bir nechta turlarini ajratib turadi. Misol uchun, “obyektiv imkonsizlik” – majburiyatni hech kim bajara olmaydigan ijro to‘siqlar, “subyektiv imkonsizlik” sifatida qarzdor tarafidan majburiyatlarni bajara olmaydigan holatlar keltiriladi. Huquqiy doktrina va sud amaliyoti qarzdor shartnoma tuzilgan paytdan boshlab avtomatik ravishda shartnomani bajarish qobiliyatini kafolatlagan deb hisoblaydi, garcha qarzdor bunga qodir bo‘lmasa ham (garantie für seine leistungsvermögen übernehme). Shunga ko‘ra qarzdorning aybidan qat‘i nazar, u shartnoma bajarilmasligi sababli ikkinchi tarafning zararini qoplashi shart, chunki shartnoma tuzilgan paytda majburiyatni bajarishni o‘z zimmasiga olgan.

Shartnomani tuzish paytida shartnomani bajarishni dastlab imkonsiz qiladigan holatlar Germaniya fuqarolik kodeksida belgilangan keyinchalik yuzaga kelgan “keyingi imkonsizlik” (nachtraglihen) holatidan ajralib turadi. Shartnomani bajarmaslikning dastlabki imkonsizligi ko‘proq qarzdorga bog‘liq bo‘lsa, keyingi imkonsizlik qarzdorga ham kreditorga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu holatda hal qiluvchi rolni uning aybi bilan shartnomani bajarishda to‘siqlar bo‘lgan shaxsni aniqlash o‘ynaydi. Agar ayb qarzdorda bo‘lsa, u zararni qoplashi shart (GFK 280-, 325-m.). Agar, aksincha, kreditorning xatti-harakatlari shartnomani bajarishga to‘sqinlik qilsa, u holda qarzdor javobgarlikdan ozod qilinadi va muayyan holatlarda o‘ziga nisbatan olingan majburiyatlarni talab qilishi mumkin (GFK 275-, 324-m.). Agar shartnomani bajarishga to‘sqinlik qiladigan holatlar shartnoma

shartlariga qo‘shimcha ravishda yuzaga kelgan bo‘lsa, bu holda taraflar javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin (GFK 275-, 323-m.). Ushbu holatlarning barchasida “pacta sunt servanda” tamoyiliga asoslangan umumiy qoida amal qiladi ya’ni qarzdor o‘z xatti-harakatlari shartnoma bajarilishiga to‘sqinlik qilganligini isbotlamaguncha javobgar bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, qarzdor shartnomani bajarmaganlikda o‘zining aybi yo‘qligini isbotlashi kerak bo‘ladi.

Ijroni kechiktirish. GFK 286-moddasida belgilangan umumiy qoidaga binoan, kreditor tarafidan majburiyatning bajarilishi to‘g‘risida aniq talablar mavjud bo‘lgan qarzdor, muddati tugaganiga va kreditorning ogohlantirishiga qaramay, uni bajarmaganida, majburiyatni bajarish muddati o‘tgan hisoblanadi. Bundan tashqari, kechikish faqat qarzdor javobgar bo‘lgan holatlar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Ijro muddati kechiktirilgan taqdirda kreditor qanday sharoitlarda kechikish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi mumkin va qanday sharoitlarda shartnomani bekor qilish va kechikish bilan bajarilgan majburiyatlarni qabul qilishdan bosh tortish mumkin degan savol tug‘iladi.

Nemis fuqarolik huquqida shartnomaviy muddatlarga rioya qilmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi da’vo faqat ma’lum shartlar bajarilgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu shartlardan biri qarzdorning kreditor tarafidan to‘lovni to‘lash muddati tugaganidan keyin kechikishi to‘g‘risida oldindan ogohlantirishdir. Sodaroq aytganda, qarzdor kreditorni o‘z majburiyatini kechiktirib bajarishi to‘g‘risida ogohlantirishidir. Agar qarzdor shartnoma majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaganligini ushbu ogohlantirish

⁵ Цваргейт К., Кетц Х. Введение в сравнительное правоведение в сфере частного права. М., 2000 г. Т.2. - С 221.



bilan isbotlab berolmasa, majburiyat kechikib bajarilgan hisoblanadi va qarzdor javobgarlikka tortilishi mumkin bo'radi (GFK 286-m).

Kechikish boshlanishi bilan kreditor unga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega, biroq bu shartnomaning muddati o'tgan ijroni qabul qilish majburiyatidan ozod qilmaydi. Bunday holatda kreditor shartnomani bekor qilishi yoki uni bajarmaganligi sababli zararni qoplashni talab qilishi mumkin. Faqat birinchidan, qarzdor uchun u tarafidan belgilangan shartnomani bajarish uchun qo'shimcha muddati o'tgan bo'lishi, ikkinchidan, u qarzdorga o'zi tarafidan belgilangan muddatlar tugaganidan keyin shartnomani ijro etish uchun qabul qilmasligini e'lon qilgan bo'lishi kerak (GFK 323-m). Ogohlantirish va qo'shimcha muddatlarni belgilash bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi mumkin. Biroq shuni ham aytish kerakki, "muddatli bitimlar"da (Fixgeschäft), ya'ni taraflar shartnomani bajarish uchun ma'lum bir muddat to'g'risida kelishib olganlarida ogohlantirish ham, qo'shimcha muddatlarni belgilash ham talab qilinmaydi. Agar biron bir muddat davomida amal qilish sharti bilan tuzilgan bitim taraflarning birortasi uchun tijorat maqsadiga muvofiq bo'lsa, unda uning bajarilishining belgilangan muddatlari buzilgan taqdirda, qonunni buzmagani taraf uni bekor qilishni yoki kontragent kechikishda aybdor bo'lsa, yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi mumkin. Lekin u sudda shartnomaning bajarilishini talab qila olmaydi, faqat unda belgilangan muddatlar tugagandan so'ng, u to'g'ridan-to'g'ri uning bajarilishini talab qilishni davom ettiradigan holatlar bundan mustasno.

Shuni ta'kidlash kerakki, GFKning 323-moddasi agar kechikish qarzdorning asosiy shartnoma majburiyatini bajarishga qaratilgan bo'lsa, bunday kechikish kreditorga

talab qilish huquqini beradi. Misol uchun, mahsulot yetkazib berish shartnomasida sotuvchining tovarni yetkazib berish majburiyati asosiy hisoblanadi. Shuning uchun, agar xaridor unga sotilgan mahsulotni yetkazib berish muddati bugzilgan holda qabul qilsa, sotuvchi faqat kechikish munosabati bilan yuzaga kelgan zararni qoplashi, lekin u belgilangan qo'shimcha muddat tugagandan so'ng shartnomani bekor qila olmaydi (GK 326-m).

Agar qarzdor shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarish muddati tugashidan oldin ham kreditorga shartnomani bajarish niyati yo'qligi to'g'risida aniq xabar bergan bo'lsa, u holda ikkinchi taraf darhol GFK 323-moddasiga muvofiq talab qilish huquqidan foydalanishi mumkin. Bunday holatda qarzdorga ogohlantirish yuborish yoki qo'shimcha muddatlarni belgilashga hojat yo'q. Huquqiy doktorina va sud amaliyoti qarzdorning shartnomani bajarishdan bosh tortishi "shartnomani ijobiy buzilishini" tashkil etadi degan qarashni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa o'z navbatida ma'lum sharoitlarda zararni qoplash yoki shartnomani bekor qilish uchun talab qilish huquqining paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bitim asoslarini bekor bo'lishi. Bitim asoslarining bekor bo'lishi formulasi agar taraflar o'zaro majburiyatlar to'g'risida kelishibgina qolmasdan, balki ular shartnomani tuzish bilan bog'laydigan ba'zi iqtisodiy maqsadlarni shartnomada aks ettirish sharti bilan qo'llaniladi. Agar belgilangan maqsadlarga erishilmasa yoki shartnoma tuzilgandan keyin vaziyat o'zgarishi sababli qisman erishilsa, unda taraflardan birining majburiyatlarga rioya qilishini talab qilish mumkin emas. Bunday vaziyatda bitim asoslarining yo'qolishi formulasi qo'llaniladi.

GFK 313-moddasiga ko'ra, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi iltimosnoma, shartnoma



tuzilgandan so‘ng, vaziyat va taraflarda jiddiy o‘zgarishlar yuz bergan hollarda berilishi mumkin. Ushbu qoida:

– shartnoma tuzishda taraflardan biri keyinchalik o‘zgargan holatga tayangan bo‘lsa;

– shartnomaning shartlarini o‘zgartirmasdan bajarish ushbu tarafning manfaatlarini sezilarli darajada buzsa qo‘llaniladi.

Culpa in Contrahendo doktorinasi⁶.

Culpa in contrahendo doktorinasi muzokara yoki shartnoma tuzish jarayonidan oldin yetkazilgan zararlarni qoplashga qaratilgan huquqiy majburiyatning asosini tashkil etadi. “Culpa in contrahendo” institutining asosiy mohiyati shundan iboratki, unda taraflar o‘rtasida muzokaralar boshlanganidan so‘ng o‘zaro halollik ko‘rsatishni talab qiladigan o‘ziga xos aloqa – ishonch munosabatlari paydo bo‘ladi.

Ko‘p hollarda culpa in contrahendo instituti shartnoma tuzilishidan oldingi davrda o‘zaro maslahat va ma‘lumot berish majburiyatini buzishidan kelib chiqadi. Bunda har bir ish bo‘yicha kontragentni javobgarlikka tortish uchun bir qator o‘ziga xos holatlarni, xususan:

– shartnoma tuzish uchun kerakli ma‘lumotlar yetarliligi;

– ishonchsiz ma‘lumotlar qanday sharoitlarda zararni qoplash uchun asos bo‘lishini aniqlash talab qilinadi.

Culpa in contrahendo printsipi kontragent shartnomani tuzilgan deb hisoblagan paytda bitim bo‘yicha dastlabki muzokaralarni o‘zboshimchalik bilan bekor qilishiga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Bunga misol sifatida oferta yuborgan taraf keyinchalik uni qaytarib olganda

kontragent zararni qoplashni talab qilishga haqli bo‘lishini keltirishimiz mumkin. Garchi hali shartnoma imzolanmagan (oferta akseptlanmagan) bo‘lsa-da, kontragent shu shartnomani tuzishdan olishi mumkin bo‘lgan foydani boy bergan holda ushbu prinsip ishlashi mumkin. Ushbu fikrimizning asosini GFKning 122-moddasi bilan asoslashimiz mumkin. Qoidaning mazmuniga ko‘ra deklaratsiya (oferta) qabul qiluvchi, ushbu oferta uni qabul qilgandan so‘ng xatolik tufayli oferta yuboruvchi tarafidan bekor qilinganda, ikkinchi taraf zararni qoplashni talab qilishga haqli bo‘ladi.

Culpa in contrahendo prinsipi mohiyatidan javobgarlik aybdorlik mavjudligi bilan bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Culpa in contrahendo printsipidan kelib chiqadigan talab birinchi navbatda majburiyatlarning buzilishi natijasida yuzaga kelgan zararni qoplashga qaratilgan. Agar zarar ko‘rgan taraf bila turib adolatsiz muzokara natijasida o‘zi uchun foydasiz bitim tuzgan bo‘lsa, u nafaqat ijro hajmini qisqartirishni, balki shartnomani bekor qilishni ham talab qilishga haqli.

Fransuz fuqarolik huquqi, nemis fuqarolik huquqida bo‘lganidek, shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik xususiyatiga qarab, shartnoma buzilishini ajratib turadi, bu esa ijro etilishning kechikishi va majburiyatlarni bajarmaslik o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi.

Shartnoma majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaslik (ijro etishni kechiktirish) va bajarmaganlik uchun javobgarlikni tartibga solishning huquqiy asoslari Fransiya fuqarolik kodeksi 1146- va 1147-moddalarida⁷ keltirilgan. Qonun majburiyatlarning lozim darajada bajarilmasligini shartnomani buzishning alohida toifasi sifatida ajratmaydi,

⁶ [Доктрина culpa in contrahendo в судебной практике Германии начала XX века. ** статья 1 \(cyberleninka.ru\)](http://cyberleninka.ru)

⁷ [Гражданский кодекс \(Кодекс Наполеона\) 1804 г | Контент-платформа Pandia.ru.](http://www.pandia.ru)



sud amaliyoti va doktrinasida bu bajarilmaslikning alohida holati sifatida qaraladi.

Shartnomani buzish zarar ko'rgan tarafa shartnomani o'z shartlariga muvofiq bajarish talabini va shartnomani bekor qilish talabini tanlash huquqini beradi hamda bu zararni qoplash huquqi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Agar shartnomani bajarish talabi qo'yilgan bo'lsa, zarar ko'rgan taraf keyinchalik shartnomani bekor qilish va yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi da'vo qilishi mumkin.

Zarar ko'rgan tarafning shartnomani bekor qilish bilan bir vaqtda zararni qoplashni talab qilish huquqi o'rtasidagi munosabatlar masalasiga kelsak, fransuz qonunchiligi asosan ikkala vositaning mos kelishidan kelib chiqadi. Fransiya fuqarolik kodeksi 1884-moddasida shartnomasining bekor qilinishi zararni qoplash to'g'risidagi da'vo bilan birlashtirilganini ko'rish mumkin. Shartnomani bekor qilish bilan bir vaqtda zarar o'rnini qoplagan taqdirda, ularning hajmini aniqlash tartibi va ularning hajmini belgilashning boshqa jihatlari zararlar to'g'risida umumiy qoidalarga bo'ysunadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, zararni qoplash to'g'risidagi da'vo ba'zi hollarda zarar ko'rgan taraf uchun shartnomani bekor qilishdan ko'ra nisbatan katta qiziqish uyg'otishi mumkin. Agar majburiyatni kechiktirib ijro etish zarar ko'rgan taraf uchun hali ham maqbul bo'lib tuyulsa va unga qiziqishni davom ettirsa, u qarzdordan yetkazilgan zararining o'zini undirishni talab qilishi va shartnomani bekor qilmasligi mumkin. Agar vaziyat qarama-qarshi xarakterga ega bo'lsa, unda zarar ko'rgan taraf kompensatsiya qilingan zararni qoplash to'g'risida da'vo bilan murojaat qilishga haqli, bu qoida tariqasida, shartnomani bekor qilish talabi bilan birga keladi.

Zararni qoplash talabi – bu shartnoma ijro etilishining kechikishi yoki bajarilmasligi bilan bog'liq zararlar, asosan, qarzdorga muddati tugaganligi haqida rasmiy eslatmani nazarda tutadi.

Zarar fuqarolik-huquqiy javobgarlik sharti sifatida. Nemis huquqida ham, fransuz huquqida ham moddiy va ma'naviy (axloqiy) zarar qoplanishi mumkin.

Moddiy zararni qoplash tartibi va hajmi GFKning 249-255-moddalari bilan tartibga solinadi. Bundan tashqari, Germaniya fuqarolik kodeksining yuqoridagi me'yorlari bilan belgilangan zararni qoplash tartibi shartnoma buzilgan taqdirda ham shartnoma qonunchiligi uchun, ham delict majburiyatlar uchun xarakterlidir. GFK 249-moddasiga binoan zararni qoplash majburiyati bo'lgan shaxs, majburiyatni bajarish holati yuzaga kelsa, zarar yetkazilishidan oldingi holatni tiklashi kerak.

Germaniya qonunchiligida ma'naviy zararni qoplash GFK 253-moddasi va "Schmerzensgeld" – "ma'naviy zarar uchun pul" deb nomlangan doktrinada tartibga solinadi. Nemis qonunida kompensatsiya qilinishi kerak bo'lgan ma'naviy zarar ostida jismoniy va ruhiy azob-uqubatlar tushuniladi.

Fransiya fuqarolik qonunchiligidagi zararni qoplash to'g'risidagi qoidalar Fransiya fuqarolik kodeksining 1149-, 1382- va 1383-moddalarida belgilangan. Ushbu me'yorlar aybdorning noqonuniy xatti-harakatlari tufayli yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini nazarda tutadi. Shu bilan birga, Fransiya fuqarolik kodeksida yoki boshqa me'yorlari mulkiy va nomulkiy zararni qoplash bilan bog'liq farqlar ajratilmagan. Zarar FFKda umumiy toifa sifatida qayd etilgan va uni keyinchalik mulkiy va nomulkiy ko'rinishlar bo'yicha farqlash fuqarolik qonunlarida mavjud bo'lmasa-da, fuqarolik huquqi nazariyasi va sud amaliyotida zarar mulkiy va



mulkiy bo‘lmagan (“Domage moral” – ma’naviy zarar) zararga ajratiladi.

Fransiya fuqarolik kodeksining keltirilgan moddalari shartnoma majburiyatlariga ham, delikt majburiyatlar uchun ham qo‘llaniladi. Yuridik adabiyotlarda shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarligi (ayniqsa, zararni qoplash bo‘yicha) delikt to‘g‘risidagi printsiplarga asoslanadi.

Fransiya fuqarolik qonunchiligi doktrinasida zararni qoplash uchun javob beradigan bir qator mezonlarni ishlab chiqdi. Xususan:

birinchidan, zarar ishonchli bo‘lishi lozim. Zararni qoplash uchun sud zararining mavjudligini aniqlashi kerak.

ikkinchidan, zarar subyektiv huquqlarni va (yoki) qonuniy manfaatlarni buzgan bo‘lishi kerak.

uchinchidan, zarar aniq miqdoriy bo‘lishi kerak. Ushbu talablar qarzdorning aybdorligi tushunchasidan kelib chiqadi, xususan, ushbu qilmish bilan zarar o‘rtasida sababiy bog‘liqlik bo‘lishi kerak. Aybdor qilmish nafaqat zarar yetkazgan, balki zararining “hal qiluvchi sababi” bo‘lgan haqiqat bo‘lishi kerak.

Kontinental Yevropa davlatlari qonunchiligidagi sababiy bog‘lanish shartnomaviy javobgarlikning vujudga kelishining muhim sharti hisoblanadi.

Harakat va natijaning paydo bo‘lishi o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlik “conditio sine qua pop” formulasi bilan belgilanadi. Ushbu formulaga ko‘ra, har qanday holat natija uchun sabab bo‘ladi, agar u bunday holat bo‘lmasa, natijaning o‘zi yo‘qoladi. Germaniya sud amaliyotiga ko‘ra, shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslikda qarzdorning aybi va yetkazilgan zara o‘rtasida sababiy

bog‘liqlik mavjud bo‘lsa, unda yetkazilgan zarar qarzdor tarafidan qoplanishi shart⁸.

Fransuz qonunchiligida shartnomaviy javobgarlik sharti sifatida sababiy bog‘liqlikni huquqiy tartibga solish uchun FFKning 1151-moddasi asos bo‘lib xizmat qiladi. Zarar faqat shartnoma buzilishining bevosita oqibatlarini bo‘lgan narsalarni o‘z ichiga olishi kerakligini ta’minlaydi. Yuridik adabiyotlarda ta’kidlanganidek, hodisa (yetkazilgan zarar) bitta sabab bilan yuzaga kelmaydi, balki ko‘plab sabablar bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan fransuz olimlari shartnomani buzganlik uchun javobgarlikni belgilashda haligacha ikkita konsepsiyani ilgari suradilar. Sabablarning ekvivalentligi tushunchasi deb nomlangan birinчисiga muvofiq, barcha sabablar teng deb tan olinishi kerak, chunki bu ularning natijasiga aloqadordir. Qarzdorning yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘lishi uchun yetarli bo‘lgan zarar va qarzdorning xatti-harakati o‘rtasidagi har qanday bog‘liqlik tan olinishi mumkin. Aks holda, bu masala ikkinchi konsepsiyaga ko‘ra hal qilinadi. Unga ko‘ra “ma’lum bir hodisaning paydo bo‘lishiga olib kelgan ko‘plab sabablar orasidan hal qiluvchi sabablarni ajratish kerak, ularsiz bu natija paydo bo‘lmaydi”⁹. Qarzdorga javobgarlikni yuklash uchun uning majburiyatini bajarmaganlik haqiqatan ham zarar yuzatganligini aniqlovchi sabab bo‘lishi kerak.

Ayb fuqarolik-huquqiy javobgarlikning sharti sifatida. Kontinental Yevropa mamlakatlari qonunida qarzdorning ayblari shartnoma majburiyatini bajarmaslik uchun javobgarlikning zarur sharti sifatida e’tirof etiladi. Fuqarolik qonunchiligi qarzdorning aybdorlik prezumptsiyasidan kelib chiqadi (masalan, Fransuz fuqarolik kodeksining 1147-moddasi; Germaniya fuqarolik kodeksi 276-moddasi) ya’ni qarz

⁸ Цваргейт К. Кетц Х. Указанное сочинение. М., 2000 г. Т.2. - С.364.

⁹ Морандьер Ж. Гражданское право Франции. М., 1958 г. Т.2. - С.334.



beruvchi qarzdorning o'z majburiyatlarini bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi faktini isbotlashi kerak.

Germaniya va Fransiya qonunchiligida ayb tushunchasining ta'rifi mavjud emas, shu sababli bu masala huquqiy doktrinalarning ixtiyoriga topshirilgan. Masalan, L. Ennekcerus aybni "irodaning buzilishi, buning natijasida odam sodir etilgan haqiqat uchun javobgar bo'lishi mumkin" deb ta'riflaydi.

Aybdorlik tushunchasining qonuniy ta'rifi yo'qligiga qaramay, qonunchilik uning qasd va beparvolik kabi shakllarini aniq tartibga soladi. GFK 276-moddasiga muvofiq "agar shartnomada yengilroq javobgarlik chorasini belgilanmagan yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha qoida kelib chiqmasa, qarzdor qasd va beparvolik uchun javobgardir". Aybning turli shakllarini farqlash mezonini sifatida qarzdor majburiyatni bajarishda ko'rsatishi kerak bo'lgan ehtiyotkorlik darajasidan foydalaniladi.

Aybdorlik shakllari bo'yicha mezonlarni belgilash masalasiga fransuz fuqarolik kodeksi bu masalaga nemis qonunchiligiga o'xshash tarzda yondashadi. Fransiya fuqarolik kodeksi 1383-moddasiga muvofiq fuqarolik aylanmasi ishtirokchisi culpa levis abstracto prinsipiga ko'ra o'zining

ayblilik darajasidan qat'iy nazara javobgar bo'ladi.

E'tiborli jihati shundaki, fransuz fuqarolik qonunchiligida ayblilik darajasi nemis qonunchiligidagi kabi darajaga bo'linmagan. Ya'ni aybdorlikni qasd va beparvolik darajasiga bo'lish prinsipi mavjud emas. Unda shaxs o'zining aybidan qat'iy nazar javobgar bo'ladi.

Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, romano-german huquq tizimidagi davlatlarda shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutini qo'llash uchun asos bo'lib, shartnomaning buzilishi hamda konragentning ushbu buzilishdagi aybi, zarar va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish muhim ahamiyatga ega. Nemis va fransuz huquqidagi ushbu javobgarlikni chaqirishdagi ayrim farqlarni hisobga olmaganda, har ikki davlatning huquqida ham yuqoridagi ajratilgan uch elementning mavjudligi shartnomaviy majburiyatni bajarmagan konragentga fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasini qo'llash mumkin bo'ladi. Agarda ulardan birortasi mavjud bo'lmasa, unday holatda javobgarlikni chaqirish masalasi so'roq ostida qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шапп Я. Основы гражданского права Германии. М., 1996 г. - С. 109.
2. Mazeaud H., Mazeaud G., Chabas F. Op. cit. - P. 450.
3. Цваргейт К., Кетц Х. Введение в сравнительное правоведение в сфере частного права. М., 2000 г. Т.2. - С 221.
4. Цваргейт К. Кетц Х. Указанное сочинение. М., 2000 г. Т.2. - С.364.
5. Морандьер Ж. Гражданское право Франции. М., 1958 г. Т.2. - С.334.
6. Доктрина culpa in contrahendo в судебной практике Германии начала XX века. **
статья 1 (cyberleninka.ru)
7. Гражданский кодекс (Кодекс Наполеона) 1804 г | Контент-платформа Pandia.ru.
8. Германское гражданское уложение/Книга 2/Раздел 2 — Викитека (wikisource.org)